



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLTLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQRISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC instituti “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Kuldashv Jahongir Qamariddinovich

Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti "Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi
Email: jo4295813@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda islom moliyasini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik, institutsional, iqtisodiy hamda huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda islom moliyasining iqtisodiy mohiyati, real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish xususiyati, risk va foydani adolatli taqsimlash tamoyili hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida islomiy moliya instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyatlari, mavjud institutsional cheklolvar, bank tizimi va kapital bozori uchun yangi mexanizmlar tahlil qilingan. Maqolada xalqaro tajriba asosida islom bankchiligi, sukuk bozori, takoful, shariat boshqaruvi va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, islom bankchiligi, murobaha, mudarabah, mushoraka, sukuk, takoful, moliyaviy inklyuziya, institutsional mexanizm, O'zbekiston.

Abstract: The article examines the theoretical, methodological, institutional, economic and legal aspects of the formation and development of Islamic finance in Uzbekistan. It highlights the role of Islamic finance in expanding financial inclusion, diversifying the financial market and attracting long-term investment. Based on international experience, the paper proposes scientific and practical recommendations for the gradual introduction of Islamic banking, the sukuk market, takaful, Shariah governance and professional training systems in Uzbekistan.

Keywords: Islamic finance, Islamic banking, murobaha, mudarabah, musharakah, sukuk, takaful, financial inclusion, institutional mechanism, Uzbekistan.

Абстрактный: В статье исследованы теоретико-методологические, институциональные, экономические и правовые аспекты формирования и развития исламских финансов в Узбекистане. Раскрыта роль исламских финансов в расширении финансовой инклюзии, диверсификации финансового рынка и привлечении долгосрочных инвестиций. На основе международного опыта разработаны научно-практические предложения по поэтапному внедрению исламского банкинга, рынка сукук, такафула, шариатского управления и системы подготовки кадров в Узбекистане.

Ключевые слова: Исламские финансы, исламский банкинг, мурбаха, мудараба, мушарак, сукук, такафул, финансовая инклюзия, институциональный механизм, Узбекистан.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahon moliya tizimida islom moliyasi so'nggi yillarda yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanayotgan muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Islom moliyasi an'anaviy moliyadan farqli ravishda foizga asoslangan qarz munosabatlarini cheklaydi, real aktivlar bilan ta'minlangan operatsiyalarni rag'batlantiradi hamda moliyalashtirish jarayonida risk va foydani tomonlar o'rtasida adolatli taqsimlashga ustuvor ahamiyat beradi. Shu sababli islom moliyasi zamonaviy iqtisodiyotda nafaqat diniy-axloqiy qadriyatlariga asoslangan tizim, balki real sektorni qo'llab-quvvatlovchi, investitsion faollikni rag'batlantiruvchi va moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qiluvchi institut sifatida baholanmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda moliya-bank tizimini isloh qilish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, kapital bozorini rivojlantirish, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va investitsiyalarni jalb etish borasida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda islom moliyasi instrumentlari bank tizimi va kapital bozorini yangi mahsulotlar bilan boyitishi, aholi jam'armalarini iqtisodiyotga jalb qilishi, kichik biznes hamda tadbirkorlik subyektlarini muqobil moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlashi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda islom moliyasiga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyoj mavjud bo'lsa-da, uning to'laqonli ishlashi uchun institutsional infratuzilma, malakali kadrlar, shariat nazorati, soliq-huquqiy moslashuv, standartlashtirilgan mahsulotlar va risklarni boshqarish tizimlari yetarli darajada shakllanmagan. Shuning uchun islom moliyasini rivojlantirish masalasi alohida bank mahsulotini joriy etish bilan cheklanmasdan, kompleks institutsional, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni yaratishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review/Обзор литературы)

Islom moliyasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda ushbu tizimning asosiy mohiyati foizsiz moliyalashtirish, real aktivlarga tayanish, foyda va zararni taqsimlash hamda shariatga muvofiq moliyaviy shartnomalar orqali izohlanadi. Z. Iqbal va A. Mirakhor islom moliyasini iqtisodiy adolat, moliyaviy barqarorlik va risklarni taqsimlashga asoslangan moliyaviy vositachilik tizimi sifatida talqin qiladi. M. El-Gamal esa islom moliyasi amaliyotida shartnoma tuzilishi, huquqiy muvofiqlik va iqtisodiy mazmun o'rtasidagi uyg'unlik masalasiga alohida e'tibor qaratadi.

M. Obaidullah va M. U. Chapra tadqiqotlarida islom moliyasining ijtimoiy yo'naltirilganligi, moliyaviy inklyuziya va real sektor bilan bog'liqligi keng yoritilgan. Ularning fikricha, islom moliyasi faqat bank xizmatlarining muqobil shakli emas, balki jamiyatda iqtisodiy mas'uliyat, halollik va resurslardan samarali foydalanish tamoyillarini mustahkamlovchi tizimdir.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan AAOIFI va IFSB standartlarida islom moliya institutlari faoliyatining shariat, buxgalteriya, audit, korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish va prudensial nazorat mezonlari belgilangan. Ushbu standartlar milliy moliya tizimida islomiy mahsulotlarni joriy etishda yagona metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlarda islom moliyasini joriy etishning asosiy yo'nalishlari sifatida islom bankchiligi, islomiy mikromoliya, sukuk, takoful, shariat kengashlari, kadrlar tayyorlash va soliq-huquqiy muvofiqlik masalalari ko'rsatiladi. Biroq mavjud izlanishlarda islom moliyasini institutsional va iqtisodiy mexanizmlar nuqtayi nazaridan kompleks baholash, uni bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli va O'zbekistonning bank-kapital bozori tizimiga integratsiya qilish masalalari yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy-amaliy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы)

Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, normativ-huquqiy tahlil, iqtisodiy guruhlash va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli orqali islom moliyasining umumiy nazariy mohiyati va asosiy tamoyillari aniqlashtirildi. Tizimli yondashuv islom moliyasini bank tizimi, kapital bozori, sug'urta, mikromoliya, regulyativ nazorat va kadrlar tayyorlash jarayonlari bilan bog'liq yagona ekotizim sifatida baholash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil yordamida Malayziya, Turkiya va Qozog'iston tajribasining O'zbekiston uchun ahamiyatli jihatlari o'rganildi. Institutsional tahlil esa islom moliyasini rivojlantirishda davlat organlari, Markaziy bank, tijorat banklari, shariat kengashlari, kapital bozori institutlari, oliy ta'lim muassasalari va xalqaro moliya tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni baholashga xizmat qildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali islomiy moliya instrumentlarini joriy etishda bank, soliq, fuqarolik va kapital bozori qonunchiligida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moslashuv ehtiyojlari aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis/Анализ)

Islom moliyasining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari

Islom moliyasi moliyaviy resurslarni shariat tamoyillariga muvofiq holda safarbar etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan moliyaviy munosabatlar tizimidir. Uning asosiy nazariy poqdevorini riba, ya'ni foizning taqiplanishi, g'arar va maysir kabi haddan tashqari noaniqlik hamda spekulativ tavakkalchilikning cheklanishi, real aktivlarga tayanish, foyda va zararni adolatli taqsimlash, shartnomaviy shaffollik hamda ijtimoiy mas'uliyat tashkil etadi.

An'anaviy bank tizimida moliyaviy munosabatlarning katta qismi kreditor va qarzdor o'rtasidagi foizli qarz munosabatlari orqali shakllanadi. Islom moliyasida esa moliyalashtirish savdo, ijara, sheriklik, investitsiya va real aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu farq islom moliyasining iqtisodiy mazmunini belgilaydi: kapital egasi faqat pulning vaqt qiymatidan daromad olmasligi, balki real iqtisodiy faoliyatda riskni baham ko'rishi lozim.

Islom moliyasining muhim jihati shundaki, u moliyaviy sektor bilan real sektor o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytiradi. Moliyaviy operatsiya real tovar, xizmat, aktiv yoki investitsion loyiha bilan bog'liq bo'lishi talab etiladi. Bu tamoyil moliyaviy spekulatsiya, haddan tashqari qarzdorlik va sun'iy kredit kengayishi xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish zarurati

O'zbekiston sharoitida islom moliyasini rivojlantirish zarurati bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, mamlakatda moliyaviy xizmatlar bozorini diversifikatsiya qilish ehtiyoji mavjud. Islom moliyasi tijorat banklari faoliyatida yangi mahsulotlar, xususan murobaha, ijara, mushoraka, mudoraba va salam kabi instrumentlarni joriy etish orqali moliyaviy xizmatlar turini kengaytiradi.

Ikkinchidan, aholining bir qismi diniy-axloqiy e'tiqodlar sababli an'anaviy foizli moliyalashtirishdan foydalanishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Islom moliyasi bunday qatlam uchun muqobil moliyaviy xizmatlar taklif etib, moliyaviy inklyuziyani oshirishi mumkin. Moliyaviy inklyuziyaning kengayishi esa aholi jamg'armalarining rasmiy moliya tizimiga kirib kelishini, investitsiya resurslari bazasining kengayishini va iqtisodiy faollikning ortishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirishda islom moliyasi instrumentlari katta ahamiyatga ega. Masalan, murobaha savdo asosidagi moliyalashtirish uchun, ijara asosiy vositalarni foydalanishga berish uchun, mushoraka va mudoraba esa sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qulay mexanizm bo'lishi mumkin. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va eksportga yo'naltirilgan kichik loyihalar uchun islomiy moliyalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, islom moliyasi xalqaro investitsiyalarni jalb etish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Islom taraqqiyot banki guruhi, xalqaro islom moliya institutlari va islom kapital bozorlaridagi investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonning infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, energetika va hududiy rivojlanish loyihalariga uzoq muddatli resurslar jalb etishiga xizmat qiladi.

Institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yo'nalishlari

Islom moliyasini samarali rivojlantirish uchun birinchi navbatda institutsional asoslarni mustahkamlash talab etiladi. Institutsional mexanizm deganda islom moliyasi faoliyatini tashkil etuvchi davlat organlari, Markaziy bank, tijorat banklari, kapital bozori institutlari, shariat kengashlari, auditorlik tashkilotlari, ta'lim muassasalari va xalqaro hamkorlik tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimi tushuniladi.

Birinchi muhim yo'nalish — shariat boshqaruvi tizimini yaratishdir. Islomiy moliya mahsulotlarining shariatga muvofiqligini ta'minlash uchun milliy darajada maslahat va nazorat funksiyasini bajaruvchi Shariat kengashi yoki Markaziy shariat kengashi faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bunday kengash mahsulotlarni standartlashtirish, shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish, banklar va mikromoliya tashkilotlari faoliyatiga uslubiy ko'mak berish hamda shariatga muvofiqlik bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish — islom bankchiligi uchun alohida operatsion modelni shakllantirishdir. O'zbekistonda dastlabki bosqichda "islom darchalari" modelini qo'llash amaliy jihatdan qulay bo'lishi mumkin. Bu model an'anaviy banklarga alohida hisob, alohida hisobot, alohida shariat nazorati va alohida risk boshqaruvi asosida islomiy moliya mahsulotlarini taklif etish imkonini beradi. Keyingi bosqichda esa to'laonli islom banklarini tashkil etish uchun sharoit yaratiladi.

Uchinchi yo'nalish — kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot bazasini kuchaytirishdir. Islom moliyasi bank xodimlari, auditorlar, regulyatorlar, huquqshunoslar, iqtisodchilar va shariat mutaxassislaridan iborat ko'p tarmoqli bilimni talab qiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida islom moliyasi, islom bankchiligi, shariat standartlari, islom kapital bozori va takoful bo'yicha maxsus o'quv kurslarini joriy etish zarur.

Huquqiy va regulyativ mexanizmlarni rivojlantirish

Islom moliyasini rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri — huquqiy aniqlikdir. Islomiy moliya operatsiyalari an'anaviy bank operatsiyalaridan shartnomaviy tuzilishi, mulk huquqi harakati, aktivlarni sotib olish va qayta sotish tartibi, risklarning taqsimlanishi hamda foyda shakllanishi bilan farqlanadi. Shu sababli mavjud bank, soliq, fuqarolik, buxgalteriya va kapital bozori qonunchiligida islom moliyasiga mos normalarni shakllantirish zarur.

Huquqiy mexanizmida birinchi masala — islom moliyasi instrumentlarining aniq ta'riflarini belgilashdir. Murobaha, mudoraba, mushoraka, ijara, sukuk, salam, istisno va takoful kabi tushunchalarning qonunchilikda aniq ifodalanishi bozor ishtirokchilari uchun huquqiy ishonch yaratadi. Ikkinchi masala — soliq neytralligini ta'minlashdir. Masalan, murobaha shartnomasida aktiv bank tomonidan sotib olinib mijozga ustama bilan sotiladi. Agar bunday operatsiya an'anaviy kreditga nisbatan ikki martalik soliq yukiga duch kelsa, mahsulot raqobatbardosh bo'lmaydi. Shu bois islomiy moliyalashtirishda iqtisodiy mazmuni bir xil bo'lgan operatsiyalar uchun soliq yukining adolatli va neytral bo'lishi muhimdir.

Uchinchi masala — prudensial nazorat va risklarni boshqarishdir. Islom bankchiligi kredit riski bilan bir qatorda tovar riski, mulk riski, shariatga muvofiqlik riski, likvidlik riski va operatsion risklarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun regulyator tomonidan kapital yetariligi, likvidlik, aktivlar sifati, shariat nazorati, axborot raqobatbardosh va iste'molchi huquqlarini himoya qilishga oid alohida talablar ishlab chiqilishi zarur.

To'rtinchi masala — xalqaro standartlarga moslashuvdir. AAOIFI standartlari shariat, buxgalteriya, audit, boshqaruv va axloqiy me'yorlar bo'yicha muhim yo'nalishlarni belgilaydi. IFSB standartlari esa islom moliya institutlarining barqarorligi, prudensial nazorati, risklarni boshqarish va korporativ boshqaruviga oid yondashuvlarni taklif etadi. O'zbekiston uchun ushbu standartlarni milliy qonunchilik va amaliyotga moslashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy mexanizmlar va moliyaviy instrumentlarni qo'llash imkoniyatlari

Quyidagi jadvalda O'zbekiston sharoitida eng muhim islomiy moliya instrumentlarining amaliy qo'llanish yo'nalishlari umumlashtirilgan.

1-jadval.

O'zbekiston sharoitida islomiy moliya instrumentlarini qo'llash imkoniyatlari

Instrument	Iqtisodiy mazmuni	O'zbekistonda qo'llash yo'nalishi
Murobaha	Aktivni sotib olib, ustama bilan muddatli to'lov asosida sotish	Savdo aylanmasi, uskunalar, xomashyo, transport vositalari
Ijara	Aktivni foydalanishga berish va ijara haqi olish	Qishloq xo'jaligi texnikasi, ishlab chiqarish uskunalar, tibbiyot jihozlari
Mushoraka	Kapital ulushlari asosida sheriklik qilish	Startaplar, eksport loyihalari, ishlab chiqarish kooperatsiyasi
Mudoraba	Bir tomon kapital, ikkinchi tomon	Innovatsion loyihalar, kichik

Instrument	Iqtisodiy mazmuni	O'zbekistonda qo'llash yo'nalishi
	boshqaruv va mehnat bilan ishtirok etishi	biznes, xizmat ko'rsatish sohasi
Sukuk	Real aktiv yoki loyiha ulushiga asoslangan qimmatli qog'oz	Transport, energetika, uy-joy, irrigatsiya va infratuzilma loyihalari
Takoful	O'zaro yordamga asoslangan islomiy sug'urta	Islom bankchiligi, lizing, investitsion loyihalar va tadbirkorlik risklari

Murobaha O'zbekiston sharoitida eng tez joriy etilishi mumkin bo'lgan instrumentlardan biridir. U savdo asosidagi moliyalashtirish shakli bo'lib, bank mijozga kerakli tovar yoki aktivni sotib olib, uni kelishilgan ustama bilan muddatli to'lov asosida sotadi. Bu instrument kichik biznes uchun uskunalar, xomashyo, transport vositalari va savdo aylanma mablag'larini moliyalashtirishda qo'llanishi mumkin.

Ijara instrumenti asosiy vositalarni moliyalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bank yoki moliya instituti aktivni sotib olib, mijozga foydalanish uchun ijaraga beradi. Shartnoma yakunida aktiv mijozga o'tkazilishi mumkin. Bu mexanizm qishloq xo'jaligi texnikasi, ishlab chiqarish uskunalarini, transport vositalari va tibbiyot jihozlarini moliyalashtirishda samarali bo'lishi mumkin.

Mushoraka va mudoraba sheriklik asosidagi moliyalashtirishni ifodalaydi. Mushorakada tomonlar kapital kiritadi va foyda kelishilgan nisbatda, zarar esa kapital ulushiga muvofiq taqsimlanadi. Mudorabada bir tomon kapital, ikkinchi tomon esa tadbirkorlik mahorati va boshqaruvni taqdim etadi. Ushbu instrumentlar startaplar, innovatsion loyihalar, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va investitsion sheriklik loyihalari uchun dolzarbdir.

Sukuk islom kapital bozorining asosiy instrumenti sifatida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda alohida ahamiyatga ega. Sukuk obligatsiyaga o'xshash bo'lsa-da, u qarz majburiyatiga emas, balki real aktiv, loyiha yoki manfaatga egalik ulushiga asoslanadi. O'zbekistonda transport, energetika, uy-joy, irrigatsiya, ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasi loyihalarini sukuk orqali moliyalashtirish kapital bozorini chuqurlashtirish va xalqaro investorlarni jalb etish imkonini beradi.

Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun saboqlar

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, islom moliyasining muvaffaqiyatli rivojlanishi alohida bank mahsulotlarining mavjudligidan ko'ra kengroq institutsional ekotizimga bog'liq. Malayziya tajribasida islom moliyasi bank tizimi, kapital bozori, sukuk, takoful, ta'lim va shariat boshqaruvi bilan uyg'un holda rivojlangan. Bu mamlakatda davlat siyosati, regulyativ aniqlik va standartlashtirish bozorning barqaror o'sishida muhim rol o'ynagan.

Turkiya tajribasi O'zbekiston uchun boshqa jihatdan muhimdir. Turkiyada "participation banking" modeli orqali islom bankchiligi an'anaviy moliya tizimi bilan birgalikda rivojlandi. Bu yondashuv bozorni keskin ajratmasdan, bosqichma-bosqich kengaytirish imkonini berdi. O'zbekiston uchun ham dastlab islom darchalari, so'ngra alohida islom banklari va kapital bozori instrumentlarini rivojlantirish mantiqan maqbul yo'l bo'lishi mumkin.

Qozog'iston tajribasi esa Markaziy Osiyo sharoitida islom moliyasini joriy etishda huquqiy baza mavjud bo'lishining o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Bozor ishtirokchilari, malakali kadrlar, mahsulotlar standartlari, investorlar ishonchi va aholining moliyaviy savodxonligi yetarli bo'lmasa, huquqiy imkoniyatlar amaliy natijaga aylanishi sekinlashadi. Shu sababli O'zbekiston islom moliyasini faqat qonun qabul qilish orqali emas, balki moliyaviy infratuzilma, kadrlar, shariat boshqaruvi va bozor talabini shakllantirish orqali rivojlantirishi zarur.

O'zbekiston uchun bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishni uch bosqichli model asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2-jadval.

O'zbekistonda islom moliyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish modeli

Bosqich	Asosiy maqsad	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
I bosqich	Huquqiy va institutsional tayyorgarlik	Tushunchalarni qonunchilikda belgilash, shariat kengashini yaratish, islom darchalari

Bosqich	Asosiy maqsad	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar
		bo'yicha talablar ishlab chiqish, pilot mahsulotlar joriy etish
II bosqich	Mahsulotlar bozorini kengaytirish	Murobaha, ijara, mushoraka, mudoraba mahsulotlarini banklar va mikromoliya tashkilotlari orqali kengaytirish, takoful asoslarini shakllantirish
III bosqich	To'liq ekotizimni shakllantirish	Sukuk emissiyalarini yo'lga qo'yish, xalqaro investorlar bilan ishlash, audit, reyting, konsalting va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish

Birinchi bosqichda huquqiy va institutsional tayyorgarlik kuchaytiriladi. Bu davrda asosiy tushunchalar qonunchilikda aniqlashtiriladi, shariat kengashi faoliyati yo'lga qo'yiladi, banklar uchun islom darchalari bo'yicha talablar ishlab chiqiladi, kadrlar tayyorlash dasturlari boshlanadi va pilot moliyaviy mahsulotlar joriy etiladi.

Ikkinchi bosqichda islomiy moliyaviy mahsulotlar bozorini kengaytirish zarur. Tijorat banklarida murobaha, ijara, mushoraka va mudoraba mahsulotlari kengaytiriladi, mikromoliya tashkilotlari va lizing kompaniyalari uchun islomiy moliyalashtirish imkoniyatlari yaratiladi, takoful asoslari shakllantiriladi va kichik biznes uchun maxsus islomiy moliyalashtirish dasturlari ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqichda islom kapital bozorini rivojlantirish, sukuk emissiyalarini yo'lga qo'yish, xalqaro investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish, islom moliyasi bo'yicha milliy reyting, audit va konsalting infratuzilmasini shakllantirish lozim. Bu bosqichda islom moliyasi mamlakatning umumiy moliya tizimiga integratsiyalashgan, lekin o'zining shariatga muvofiq tamoyillari va regulyativ xususiyatlariga ega alohida yo'nalish sifatida rivojlanadi.

Taklif va tavsiyalar

O'zbekistonda islom moliyasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha o'rta muddatli milliy strategiya ishlab chiqish va unda bank, mikromoliya, kapital bozori, takoful, kadrlar tayyorlash hamda xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini aniq belgilash.

2. Markaziy darajada shariat maslahat kengashi yoki shariat nazorati mexanizmini yaratish orqali islom moliya mahsulotlarining yagona standartlar asosida shakllanishini ta'minlash.

3. Tijorat banklarida islom darchalarini bosqichma-bosqich joriy etish, ularning alohida hisob yuritishi, alohida shariat nazorati va shaffof hisobot tizimini belgilash.

4. Murobaha, ijara, mushoraka, mudoraba, salam, istisno, sukuk va takoful instrumentlari bo'yicha namunaviy shartnomalar, buxgalteriya hisobi va soliq tartiblarini ishlab chiqish.

5. Islomiy moliyalashtirishda soliq neytralligini ta'minlash, ya'ni iqtisodiy mazmuni an'anaviy kreditga yaqin bo'lgan operatsiyalar ortiqcha soliq yukiga duch kelmasligi uchun normativ o'zgartirishlar kiritish.

6. Kichik biznes, qishloq xo'jaligi va oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirishda islomiy mikromoliya va islomiy lizing mexanizmlarini rivojlantirish.

7. Oliy ta'lim muassasalarida islom moliyasi bo'yicha maxsus fanlar, magistratura yo'nalishlari, qisqa muddatli sertifikat kurslari va amaliy treninglarni yo'lga qo'yish.

8. Xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirib, sukuk, texnik ko'mak, kadrlar tayyorlash va institutsional rivojlanish yo'nalishlarida qo'shma dasturlarni amalga oshirish.

Xulosa (Conclusions/Заключение)

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish moliya bozorini diversifikatsiya qilish, aholining muqobil moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish, tadbirkorlikni real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish orqali qo'llab-quvvatlash va xalqaro investitsiyalarni jalb

etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Islom moliyasi faqat diniy tamoyillarga asoslangan moliyaviy xizmatlar majmui emas, balki iqtisodiy adolat, shaffoflik, risklarni taqsimlash va real sektor bilan bog'liqlikni kuchaytiruvchi kompleks moliyaviy tizimdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islom moliyasining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchta asosiy shartga bog'liq: birinchidan, huquqiy va regulativ bazaning aniqligi; ikkinchidan, shariat boshqaruvi, kadrlar va mahsulotlar standartlaridan iborat institutsional infratuzilmaning shakllanishi; uchinchidan, banklar, kapital bozori, mikromoliya, takoful va xalqaro investitsiya mexanizmlarining o'zaro uyg'un rivojlanishi.

Shunday qilib, O'zbekiston uchun islom moliyasini joriy etishning eng maqbul yo'li bosqichma-bosqich rivojlanish modelidir. Dastlab huquqiy-institutsional asoslar va pilot mahsulotlar shakllantiriladi, keyingi bosqichda bank va mikromoliya sektorida islomiy xizmatlar kengaytiriladi, yakuniy bosqichda esa sukuk bozori, takoful va xalqaro investitsiya platformalari orqali to'liq islom moliyasi ekotizimi yaratiladi. Bunday yondashuv mamlakatda moliyaviy inklyuziya, investitsion faollik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son qarori.
2. AAOIFI. Shari'ah Standards, Accounting and Auditing Standards for Islamic Financial Institutions. Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.
3. Islamic Financial Services Board (IFSB). Guiding Principles and Prudential Standards for Institutions Offering Islamic Financial Services. Kuala Lumpur.
4. LSEG and ICD. Islamic Finance Development Report 2024. London: LSEG / Islamic Corporation for the Development of the Private Sector, 2024.
5. Islamic Development Bank. Annual Report and Country Partnership Materials on Uzbekistan. Jeddah: IsDB Group.
6. UNDP Uzbekistan and Islamic Development Bank. Enabling Environment for Islamic Finance Instruments in Uzbekistan materials.
7. Iqbal, Z., Mirakhor, A. An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. Singapore: Wiley.
8. El-Gamal, M. Islamic Finance: Law, Economics, and Practice. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Obaidullah, M. Islamic Financial Services. Jeddah: Islamic Research and Training Institute.
10. Chapra, M. U. The Future of Economics: An Islamic Perspective. Leicester: Islamic Foundation.
11. Mahdi, I. B. S., & Abbes, M. B. Relationship between capital, risk and liquidity: a comparative study between Islamic and conventional banks in MENA region. *Research in International Business and Finance*, 45, 588-596.
12. Nagayev, R., Disli, M., Inghelbrecht, K., & Ng, A. On the dynamic links between commodities and Islamic equity. *Energy Economics*, 58, 125-140.
13. Kalimullina, M. Islamic finance in Russia: a market review and the legal environment. *Global Finance Journal*, 46, 100534.
14. Gambееva, Yu. N., & Medvedeva, S. N. Islamic finance: features of formation and development. *Russian Journal of Entrepreneurship*.
15. Abrorov S. Z. Jahon mamlakatlarida sukuk bozori rivojlanishining tahlili. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 2021, 5-son, 250-254-bet.